

KONSTITUTSIYA – FAXRIMIZ , G‘URURIMIZ

Normo‘minov Muhiddin Ekin o‘g‘li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalish talabasi

Ilmiy maslahatchi: f.f.f.d (PhD) **Madiyeva Madina Yusupovna**

xolmurodovmuxiddin45@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasi umumiy mohiyati, ahamiyati va Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta‘minlashning muhim asosi ekanligi bundan tashqari faxrimiz ila yo‘g‘rilgan g‘ururimiz ekanligi haqida ma‘lumot olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat va jamiyat, demokratiya” va “demokratik”, referendum, Yangi Konstitutsiya, insonparvarlik, Qadimgi Rim va boshqalar.

THE CONSTITUTION IS OUR PRIDE

Abstract: In this article, you can learn about the general essence and significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the fact that our Constitution is an important basis for strengthening our independence, ensuring a peaceful and prosperous life for our people, and is also our pride and joy.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, state and society, democracy” and “democratic”, referendum, New Constitution, humanism, Ancient Rome, etc.

КОНСТИТУЦИЯ – НАША ГОРДОСТЬ

Аннотация: В данной статье вы сможете получить информацию об общем характере и значении Конституции Республики Узбекистан и о том, что наша Конституция является важной основой укрепления нашей независимости, обеспечения мирной и благополучной жизни нашего народа, это также наша гордость.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, государство и общество, демократия» и «демократический», референдум, Новая Конституция, гуманизм, Древний Рим и др.



Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta'minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongu shuurida Vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuyg'usini mustahkamlash maqsadida o'tkazilayotgan uchrashuv, davra suhbat, ochiq muloqot va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar yuksak samaralar bermoqda.

Odatda ko'p davlatlar Konstitutsiyasi nufuzli ekspertlar, deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, so'ngra parlamentda qabul qilinadi. Bunday hujjatlar mutaxassis nuqtai nazaridan yuqori baholarga sazovor bo'lsa-da, unda xalqchilik, xalq ruhiyati yetishmaydi.

Ayrim davlatlar hatto o'z asosiy qonunlarining referendumda, xalq ishtirokida qabul qilingani bilan faxrlanishadi. Albatta, bu eng oliy darajadagi qaror. Biroq bu jarayonda xalq oldida faqat ikki savoldan biriga javob berish imkonigina bo'ladi: Konstitutsiya matnini tasdiqlash yoki rad etish.

O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xosligi shundaki, u ikki marotaba xalq muhokamasida yurtdoshlarimiz xohish-irodasi bilan boyitildi. Umumxalq muhokamasi davomida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza bildirilgan.

Ma'lumki, davlat va jamiyat hayotida ba'zi bir narsalar bo'ladiki, u Vatanimiz kabi yagonadir: bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz, shuningdek Konstitutsiyamiz ham yagonadir. Bularning har biri o'z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqсадlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasdir.

Bosh qomusimiz muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat.

Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat – bu Konstitutsiyaning “O'zbekiston xalqi” deb boshlanishidir. Bunday jumalarni boshqa biron bir qonunda uchratmaymiz. Buning o'zi ham xalq hokimiyatchiligining yorqin dalolati.

Konstitutsiyamizning yana bir eng muhim xususiyati – bu xalq suvereniteti e'tirof etilganligidadir. Asosiy qonunimizning 7-moddasida xalq davlat



hokimiyatining birdan bir manbai ekani muhrlangan. Asosiy qonunimizda “demokratiya” va “demokratik” soʻzlari 7 marta, “xalq” soʻzi 24 marta qoʻllangan.

Gʻarb olimlari dunyo konstitutsiyalari tahlili natijasida 70 ta asosiy mavzuning qamrab olinishi boʻyicha 190 davlat konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy ahamiyatdagi boshqa hujjatlarni oʻrganganda davlatimiz Asosiy qonuni 0,59 natijani koʻrsatib, nisbatan koʻproq mavzularni qamrab olgani ayon boʻldi. Bu jihatdan Avstriya Konstitutsiyasi 0,57, AQSH Konstitutsiyasi 0,49, Buyuk Britaniyaning konstitutsiyaviy ahamiyatdagi hujjatlari 0,43 natijani koʻrsatgan.

Konstitutsiyamizda inson manfaatlarini ustun qoʻyilgan. Asosiy qonunimizni sinchiklab oʻrgangan har bir shaxs bevosita guvohi boʻladiki, uning butun mazmun-mohiyati insonga xizmat qilishga qaratilgan. Konstitutsiyamizning biron bir joyida “davlatning huquqi” yoki “fuqarolar davlat hoxish-irodasini bajarishi shart” qabilidagi qoidalar uchramaydi. Aksincha, Asosiy qonunimizda “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida masʼuldirlar”, “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini taʼminlaydi” kabi davlatning majburiyatlarini uchratamiz.

Konstitutsiyamiz oʻzining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga koʻra voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolgʻiz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyigidan mahrum boʻlgan bolalarni boqish, tarbiyalash va oʻqitishni taʼminlaydi, bolalarga bagʻishlangan xayriya faoliyatlarini ragʻbatlantiradi.

Konstitutsiyamizning yana bir muhim jihati, bu uning barqarorligidadir. Qayd etish joizki, oʻtgan 27 yil mobaynida Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs munosabatlari, maʼmuriy-hududiy va davlat tuzilishiga oid normalari oʻzgarmadi. Oʻtgan davr mobaynida unga 12 ta oʻzgartirish va qoʻshimcha kiritilgan boʻlsa-da, bularning deyarli barchasi davlat hokimiyatini tashkil etish boʻlimiga kiritilgan tuzatishlar boʻlib, u ham boʻlsa mamlakatimizda konstitutsiyaviy prinsip boʻlgan xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish, davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat koʻrsatishida fuqarolarning bevosita va bilvosita taʼsirini oshirish, parlamentning davlat ichki va tashqi siyosatidagi rolini kengaytirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy va odil sudlovning oʻrnini yanada mustahkamlashga oid tuzatishlardir.



Qadimgi Rim yuristlarining fikricha, qonun qisqa, lo‘nda bo‘lishi lozim. Dunyoda eng ko‘p so‘z ishlatilgan Konstitutsiya Hindiston Asosiy qonuni bo‘lib, mutaxassislar fikriga ko‘ra unda 146 ming 385 so‘z ishlatilgan. AQSH Konstitutsiyasida 7 ming 762, Frantsiya Konstitutsiyasida 10 ming 180 so‘z ishlatilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasida esa 7 ming 550 so‘z qo‘llanilgan.

Qayd etish joizki, dunyodagi eng rivojlangan davlatlar Konstitutsiyalari bilan raqobatlashadigan Konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish masalaning bir jihati. Masalaning boshqa bir muhim tomoni, qabul qilingan hujjatni hayotimizga samarali tatbiq etishda namoyon bo‘ladi. Bu Konstitutsiyada ko‘zlagan maqsadlarimizning eng muhim shartidir.

Qadimdan huquqshunoslikda “huquq, qonun hushyor, ogoh, g‘ayratli odamlar uchun yoziladi, g‘aflatda qolganlar uchun emas. Kim huquqlaridan foydalanmasa, ko‘rgan zarari uchun o‘zi aybdor” degan qarashlar mavjud.

Shunday ekan, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda kafolatlangan huquqlardan har birimiz o‘z o‘rnida foydalana olsak, hamisha har yerda huquqlarimiz ta‘minlanishiga erishamiz.

Konstitutsiyamizning 32-moddasida fuqarolarimizning siyosiy huquqlari sifatida jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqlari mustahkamalanib qo‘yilgan. 23-bob, 117-moddasida fuqarolarimizning saylash va saylanish huquqlari mustahkamlangan.

Hammamizga ma‘lumki, mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon - joriy yilning 22 dekabr kuni yangi qabul qilingan Saylov kodeksi asosida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga saylovlar bo‘lib o‘tadi. “Yangi O‘zbekiston, yangi saylovlar!” shiori ostida o‘tkazilayotgan muhim siyosiy kampaniyaga juda qizg‘in hozirliklar ko‘rilmoqda.

Bu jarayonda Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish va uning saylov tizimiga oid normalarini hayotimizda to‘la qonli aks ettirish, aholi keng qatlamlari, ayniqsa, saylovlarda ilk marta ishtirok etadigan yoshlarning huquqiy savodxonligi va saylov qonunchiligidan xabardorligini oshirish har bir tumanimiz faoli oldida turgan juda ham muhim vazifadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Asosiy Qomusimiz jamiyatimizdagi osoyishta va tinch hayotimiz, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligimiz va taraqqiyotimizning kafolati sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Buni har birimiz yurakdan his etib, Asosiy Qomusimizni yanada chuqur va atroflicha o‘rganishimiz,



uning har bir normasidagi talablarga kundalik hayotimizda qat'iy amal qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023- yil 30- aprel.
2. Mirziyoev Shavkat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Xaitov Aktam - Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Spikeri o‘rinbosari, O‘z.Lider fraksiyasi rahbari - “Konstitutsiya - farovon hayotimiz taraqqiyotining asosiy poydevori” - lider.uz /uz/ ro‘znomasi maqolasi bosh sahifa . 09.12.2020 yil. № 1030.
4. A.Rahimov - “Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati” “Xalq so‘zi” ro‘znomasidagi maqolasi. 09.12.2021 yil. 2- bet. 479 ISSN 2181-063X / Impact Factor 4.047 (SJIF 2021) "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> Volume 4 Issue 6 / December 2023
5. Abdikarimova Sayyora – O‘z. Oliy Majlis Senati a‘zosi - “Konstitutsiya - taraqqiyotimiz va farovonligimiz kafolati” – O‘z. Ru. En. Constitution. [Uz/uz/pages/](https://uz/pages/), bosh sahifa.
6. “Konstitutsiya - farovon hayotimiz va taraqqiyotning asosiy poydevori”. - O‘z.Res. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi - “Xalq so‘zi” ro‘znomasi, maqola, 24.11.2021 yil № 926. 2- bet.
7. <https://toshloq.uz/site/view/news/815>
8. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=52559>

Research Science and Innovation House

